

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
«O'ZBEKISTON IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY  
ASOSLARI VA MUAMMOLARI» ILMIY-TADQIQOT MARKAZI**

**Qo'lyozma huquqida  
UDK: 336.2:6P2.15.7:338(575.1)**

**NAZAROV SUNNATULLA AMIRILLOYEVICH**

**O'ZBEKISTONDA SOLIQ TEKSHIRUVLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit**

**IQTISODIYOT FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
ilmiy darajasini olish uchun yozilgan**

**DISSERTASIYA**

**Ilmiy rahbar: iqtisodiyot fanlari doktori,  
dotsent F.I.Isayev**

**1267**

**Toshkent – 2023-yil**



<b>KIRISH.....</b>	<b>3</b>
<b>I BOB. O'ZBEKISTONDA SOLIQ NAZORATINI TASHKIL ETISHNING NAZARIY ASOSLARI.....</b>	<b>12</b>
1.1-§. Raqamli iqtisodiyot sharoitida soliq nazoratini tashkil etish muammolari.....	12
1.2-§. Soliq nazoratini tashkil etishning xorij tajribasi.....	21
1.3-§. Kameral va sayyor soliq tekshiruvining nazariy masalalari.....	31
Birinchi bob bo'yicha xulosalar.....	42
<b>II BOB. KAMERAL SOLIQ TEKSHIRUVINI TAKOMILLASH-TIRISH.....</b>	<b>44</b>
2.1-§. Raqamlashtirish asosida soliq tekshiruvlarini tashkil etish.....	44
2.2-§. Foyda solig'ini kameral soliq tekshiruvidan o'tkazish metodikasini takomillashtirish.....	53
2.3-§. Kameral soliq tekshiruvi natijalarini rasmiylashtirish.....	67
Ikkinchi bob bo'yicha xulosalar .....	79
<b>III BOB. SAYYOR SOLIQ TEKSHIRUVINI TAKOMILLASH-TIRISH.....</b>	<b>81</b>
3.1-§. Sayyor soliq tekshiruvini o'tkazish tartibi va uni amalga oshirish yo'llarini takomillashtirish.....	81
3.2-§. Sayyor soliq tekshiruvini o'tkazishda aktivlarni inventarizatsiyasi asosida soliq bazasini kengaytirish.....	97
3.3-§. Soliq tekshiruvlarida soliq organlarini faoliyatini takomillashtirish va ularni samaradorligini baholash yo'llari.....	107
Uchinchi bob bo'yicha xulosalar .....	113
<b>XULOSA.....</b>	<b>116</b>
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....</b>	<b>121</b>
<b>ILOVALAR.....</b>	<b>135</b>

## **KIRISH (iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD))**

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon amaliyotida mamlakatlarda soliq tekshiruvlarining pirovard natijasi sifatida soliqlarning to'g'ri hisoblanishi va to'lanishi, soliq qonunchiligi buzilishining oldini olish hamda soliq to'lovchilar tomonidan o'z majburiyatlarini bajarmaslik oqibatida davlatga etkazilgan zararning o'rmini qoplash jarayonlarining ahamiyati ortib bormoqda. "Soliq tekshiruvi daromadlarni yig'ishga ta'sir etadi, chunki u soliq to'lovchilarning ixtiyoriy ravishda majburiyatlarini bajarishga yordam beradi, bu esa daromadlarni oshiradi"<sup>1</sup>. Bugungi kunda soliq to'lovchilarning qonunchilikka to'g'ri rioya qilishi bo'yicha xatti-harakatlari sabablarini o'rganish va ularni bartaraf etishni samarali aniqlash zarurati mavjudligi mavzuning dolzarbligini oshirmoqda.

Jahonda olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarda soliq tekshiruvlari soliq to'lovchilarni soliq organlari oldida hisob-kitoblarni to'g'ri taqdim etishga yordam beruvchi xizmat sifatida o'rganilmoqda. Tadqiqotlar doirasida soliq to'lovchilarning soliq qonunchiligidagi rioya etmaslik darajasi oshishini cheklash, soliq tekshiruvining soliq qonunchiligidagi ta'sirini o'rganish, soliq ma'murchiligini osonlashtiruvchi qonunchilik islohotlarini joriy etish, soliq tekshiruvining daromadlarni yig'ish samaradorligiga ta'sirini o'rganish, soliq tekshiruvi samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarni baholash, soliq tekshiruvi modellari va soliq organlari faoliyatiga elektron texnologiyalarni joriy etish singari masalalarda ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida soliq qonunchiligi va soliq tizimini takomillashtirish orqali soliq ma'murchiligi va soliq nazorati samaradorligini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-oktyabrdagi PF-6098-sonli Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va soliq organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmonida "Mamlakatimizda yashirin iqtisodiyot

<sup>1</sup> Jean Bosco Harelimana, Blaise Nyabirande. Effects of tax audit on revenue collection in Rwanda. Journal of Economics, Business and Market Research (JEBMR) 2020 Sci Tech Central Inc., USA Vol. 1 (1) 54-69